JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 15 - yanvar 5-3-54-Q/24 Yangiobod tumani hokimligi

Jizzax viloyati Yangiobod tuman hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 143-3-54-Q/23-sonli qarorini qonunga muvofiqlashtirish va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-“Aholini bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 9-bobi, 39-moddasi, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga asosan Yangiobod tuman hududidagi korxona va tashkilotlarda 2024-yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun 28 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Jizzax viloyati Yangiobod tuman hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 143-3-54-Q/23-sonli qarorining 2-bandining “b” kichik bandi quyidagicha bayon qilinsin:

- “b” Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta’lim tashkilotlarini kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 7 foiz (18 kishi);

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **I.B.Qarshiboyev**